

PAPER

O‘ZBEK VA QOZOQ MILLIY QADRIYATLARINING ZAMONAVIY KONSEPTUAL TALQINI: MUSHTARAKLIK VA TRANSFORMATSIYA

Urazov Bagdat Tulepbergenovich ^{1,*}

¹ Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze

* b.urazov8080@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada Markaziy Osiyoning ikki yirik xalqi — o‘zbek va qozoq xalqlarining milliy qadriyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Globallashuv sharoitida an’anaviy qadriyatlarning zamonaviy ijtimoiy institutlarga transformatsiyasi va ularning mintaqaviy integratsiyadagi roli ko‘rib chiqiladi.

Key words: milliy qadriyatlar, mahalla, dasht demokratiyasi, hashar, asar, Markaziy Osiyo, modernizatsiya, ijtimoiy kapital.

Kirish

Zamonaviy globallashuv sharoitida oliy ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifa — faqatgina yuqori malakali mutaxassis emas, balki o‘z milliy identivligini anglagan, vatanparvar shaxsni tarbiyalashdir. O‘zbekiston Respublikasining Milliy tarbiya konsepsiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, bu jarayonni “makon — qadriyat — kompetensiya” uchligi asosida aniqlashtirish dolzarb pedagogik zarurat hisoblanadi.

“Makon” konsepsiyasi bilan identivlik — bu shaxsning o‘zi yashab turgan, tug‘ilib o‘sgan va faoliyat yuritayotgan hududiy birlikni (qishloq, shahar, Vatan) nafaqat jismoniy joy, balki

o‘zligining bir qismi deb qabul qilishidir. Pedagogik jarayonda bu tushuncha talabani o‘zi tug‘ilgan makon bilan ma’naviy, madaniy va ruhiy jihatdan “bir butun” deb his qildirishga qaratilgan.

Tadqiqot ob’ekti va qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqotning ob’ekti sifatida talabalarini Vatanga muhabbat tuyg‘usida tarbiyalashda O‘zbek va qozoq xalqlarining tarixiy ildizlari, urf-odatlar va qadriyatlarining mushtarakligi talabalarda umuminsoniy va milliy g‘ururni shakllantirishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, kontekstual, kompleks va funktsional tahlil

Compiled on: February 16, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Education for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Bizning fikrimizga ko'ra, qadriyat va kompetensiya uyg'unligi talabaning qalbini ma'naviyat bilan, qo'lini esa zamonaviy texnologiya va bilim bilan qurollantiradi. Fanlararo integratsiya asosida loyihalangan tarbiyaviy tizim talabada o'z kuchi va davlatining kelajagiga bo'lgan mustahkam ishonchni shakllantiradi. Pirovard natijada, oliy ta'lim tizimi nafaqat diplomli mutaxassisni, balki o'z millatining qadri bilan yashaydigan, uning kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan va bu yo'lda o'z bilimlarini amaliy samaraga aylantira oladigan haqiqiy vatanparvar fuqaroni jamiyatga taqdim etadi. Vatanga muhabbat, ona yurtini sevish kuchli mashaqqatni talab etmaydi, vatanparvarlik bo'lsa burch va mas'uliyatni talab etadi va insonni amaliy faoliyatga kirishishga undaydi. Ayniqsa, vatanparvarning burchi mas'uliyatni to'liq bajarish talab etadi va Vatanni dushmanlardan himoya qilishni, o'z Vatanga sadiq xizmat qilish kabi yaxshi fazilatlarni qamrab oladi. Bu haqida nemis faylasufi Immanuel Kant: «huquqiy burchni bajarish tashqaridan majbur etilsa, axloqiy burch aksincha, fazilatga, ya'ni ichki hodisaga, ixtiyor erkinligiga bog'liq [46]. Shu bois talaba-yoshlarda Vatanga muhabbat tuyg'usini ichki axloqiy majburiyat sifatida shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Qadriyatlarga asoslangan yondashuv tarbiya jarayonining ma'naviy fundamentini tashkil etadi. Bunda Vatanga muhabbat — bu ajdodlar merosi, milliy til, madaniyat va tarixga bo'lgan chuqur hurmat sifatida talqin qilinadi. Talaba shunchaki faktlarni yodlamaydi, balki ularni o'z qadriyatlar tizimiga o'tkazadi (internalizatsiya). Masalan, tarixiy siymolar hayotini o'rganish orqali ulardagi fidoyilik qadriyati talabaning o'z hayotiy tamoyiliga aylanishi ko'zda tutiladi. Biroq, zamonaviy dunyoda faqat qadriyatning o'zi yetarli emas; uni amaliyotda qo'llay olish, ya'ni kompetensiya talab etiladi. Talabalarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirish uchun milliy an'analarni zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish lozim. Bunda o'zbek-qozoq do'stligi va madaniy aloqalarini namuna sifatida ko'rsatish, talabalarda bag'rikenglik va insonparvarlik fazilatlarni rivojlantirish

muhim strategik vazifadir. Zero, faqat o'zgalarda madaniyatini hurmat qilgan va o'z tarixini chuqur bilgan yoshlarga Vatanning haqiqiy posboni bo'la oladilar.

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek va qozoq xalqlarining tarixiy ildizlari, dini va madaniyati bir-biriga juda yaqin. O'zbek-qozoq milliy qadriyatlaridagi mushtaraklik — mehmondo'stlik, kattalarga hurmat, tinchliksevarlik va jamoaviylik tuyg'ulari talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim poydevoridir. O'zbekistonda istiqomat qilayotgan qozoq millatiga mansub talabalarda vatanparvarlikni shakllantirishda ikki xalqning azaliy do'stligi poydevor bo'lib xizmat qiladi. Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy ildizlari, dini va urf-odatlaridagi mushtaraklik — mehmondo'stlik, kattalarga hurmat va jamoaviylik tuyg'ulari tarbiyaning muhim vositasidir.

Alisher Navoiy va Abay Qunonboyev asarlaridagi insonparvarlik falsafasi, shuningdek, Alixonto'ra Sog'uniyning ilm-fanga oid o'gitlari talabalar uchun ma'naviy ideal hisoblanadi. Ma'rifatparvar Abay ta'kidlaganidek, xarakter ustoz va do'stidan yuqadi. Binobarin, o'zbek va qozoq mutafakkirlari merosini qiyosiy o'rganish talabalarda madaniyatlararo muloqot madaniyatini yuksaltiradi. Pedagogik imkoniyatlarning mohiyati — talabaga vatanparvarlikni "o'rgatish" emas, balki uni o'rab turgan muhit, ta'lim mazmuni va ijtimoiy aloqalar orqali bu tuyg'uni uning ichki ehtiyojiga aylantirishdir. O'zbek va qozoq xalqlari misolida bu jarayon umumiy tarixiy xotira va madaniy transformatsiyani to'g'ri anglash orqali yanada kuchliroq namoyon bo'ladi.

Vatanparvarlik — bu faqat o'z xalqini sevish emas, balki qo'shni xalqlar bilan tinchlik va totuvlikda yashab, umumiy xavfsizlik va taraqqiyotga hissa qo'shishdir.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda pedagogik imkoniyatlar juda keng qamrovli bo'lib, ular faqatgina nazariy bilim berish bilan cheklanmaydi. Vatanparvarlik tarbiyasi alohida fan emas, balki barcha fanlar (Tarix, adabiyot, falsafa) mazmuniga singdirilgan bo'lishi kerak. Dars jarayonida o'zbek va qozoq xalqlarining umumiy turkiy ildizlarini, mushtarak an'analarini yoritish orqali talabalarda "hududiy daxldorlik"

hissini uyg‘otish maqsadga muvofiqdir. O‘zbek va qozoq adabiyoti namoyandalarining asarlarida Vatan, do‘stlik va milliy o‘zlikni anglash g‘oyalari mushtarakdir.

Abay Qunonboyevning komil inson haqidagi qarashlari va Alixontura Sog‘uniyning ilm-fanni egallash haqidagi o‘g‘itlari yoshlarning ma‘naviy dunyosini boyitishda bir xil ahamiyatga ega. Demak, ta‘lim jarayonida qozoq va o‘zbek mutafakkirlarining asarlarini qiyosiy o‘rganish talabalarda madaniyatlararo muloqot madaniyatini yuksaltiradi va qo‘shni xalqlar bilan do‘stlikni mustahkamlash — Vatan farovonligining asosi ekanini anglatadi.

Buyuk mutafakkir olimlarimizning Vatanga muhabbat tuyg‘usi tog‘risidagi g‘oyalari, o‘gitlarini talaba-yoshlarga singdirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma‘rifatparvar ajdodimiz Alixonto‘ra Sog‘uniy vatanparvarlikni tarixiy xotira bilan bog‘laydi. U o‘z asarlarida Turkiston xalqlarining umumiy o‘tmishini tahlil qilib, millat o‘z tarixini bilmasa, o‘z makonini himoya qila olmasligini ilmiy asoslaydi. Uning tarixiy voqelikka munosabati “o‘tmish — bugun — kelajak” zanjirini yaratishga qaratilgan. Sog‘uniy vatanparvarlikni shunchaki hududni sevish emas, balki ajdodlar merosiga egalik qilish mas‘uliyati deb isbotlaydi.

Bugungi o‘zbek va qozoq pedagogikasidagi asosiy yangilik — vatanparvarlikni shiorlar emas, balki aniq ijtimoiy foydali harakatlar va zamonaviy texnologiyalar orqali shakllantirishdir. Bu talabada “Vatan menga nima berdi?” emas, balki “Men Vatan va mintaqa ravnaqi uchun nima qila olaman?” degan savolga javob berish ko‘nikmasini tarbiyalaydi. O‘zbekistonda talaba-yoshlar ongida vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat va madaniyatlararo bag‘rikenglikni shakllantirish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida ushbu yo‘nalishda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi vatanparvarlikni faqat hissiyot emas, balki bilim va bag‘rikenglikka asoslangan faol hayotiy pozitsiya sifatida talqin qiladi. Bu esa oliy ta‘lim talabalarining ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol topishi uchun huquqiy va ijtimoiy kafolat bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

Bugungi kunda milliy o‘zlikni anglash jarayoni nafaqat o‘tmishga qaytish, balki milliy kodlarni zamonaviy taraqqiyot bilan uyg‘unlashtirish demakdir. O‘zbek va qozoq xalqlari tarixan bir ildizga ega bo‘lib, ularning qadriyatlar tizimi jamiyat barqarorligini ta‘minlovchi asosiy omil hisoblanadi. O‘zbekistonlik qozoq talabalari misolida vatanparvarlik tarbiyasi — bu etnik o‘ziga xoslikni saqlagan holda, yagona umumdavlat manfaatlariga xizmat qiluvchi shaxsni kamolga yetkazishning murakkab pedagogik-psixologik jarayonidir. Talabalarda Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish — bu psixologik barqarorlik, pedagogik mahorat va zamonaviy madaniy tendensiyalarni to‘g‘ri tahlil qilishning sintezidir. O‘zbek-qozoq do‘stligi va madaniy aloqalarini namuna sifatida ko‘rsatish talabalarda mintaqaviy daxldorlik hissini uyg‘otadi. Faqat o‘z tarixini chuqur bilgan va o‘zgarlar madaniyatini hurmat qilgan yoshlarga Yangi O‘zbekistonning haqiqiy bunyodkorlari bo‘la oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari". Tashkent, 2020.
2. Nazarboyev N.A. "Bolashaqqa bag‘dar: ruxani jaŋg‘iru". Astana, 2017.
3. Farobiy A.N. "Fozil odamlar shahri". Toshkent: "Yangi asr avlodi 2018.
4. Abay Qunonboyev. "Qara so‘zder". Almati: «Jazushi», 2010.
5. Уразов Б. Миллий қадриятлар асосида ўқувчиларда ватанпарварлик туйғусини шакллантириш (М. Омаров ижоди мисолида) //Talqin va tadqiqotlar. — 2023. — Т. 1. — №. 23.
6. Уразов Б. Т. М. Омаров - Балалар патшалығының ақыны //Academic research in educational sciences. — 2021. — Т.
7. Tulepbergenovich U. B. Fostering Patriotism and Emotional Attachment to the Motherland in Students through Literature Classes //Spanish Journal of Innovation and Integrity. — 2025. — Т. 49. — С. 75-78.

8. Tulebergenovich U. B. THE IMPORTANCE OF IMPROVING THE PROCESSES OF EDUCATING UNIVERSITY STUDENTS IN A SENSE OF LOVE FOR THE MOTHERLAND AT THE PRESENT TIME.